



INVESTITSİYALAR VA BOSHQA UZOQ MUDDATLI AKTIVLARINING BUXGALTERIYA HISOBI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Bunyod O‘tkirovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi mudiri. +998 99 677 27 92

E mail: bunyod.abdullayev2792@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-2086-9532>

Ergashov G‘ayratjon To‘lqin o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Iqtisodiyot mutaxassisligi bo‘yicha magistr

KIRISH VA DOLZARBLIK

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish va mulkiy munosabatlarni erkinlashtirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, shu jarayonda investitsiya faoliyati alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekchasi aytganda, iqtisodiyotning yuragi". Darhaqiqat, iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish bilan iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uzoq muddatli aktivlardan — asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar va boshqalardan — foydalanish samaradorligiga bog'liq. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, investitsion faoliyatni kengaytirish jarayonlarida uzoq muddatli aktivlarning ulushi va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi tizimida uzoq muddatli aktivlarning — xususan, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar va uzoq muddatli debitorlik qarzlarning — to'g'ri tan olinishi, baholanishi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishida bir qator metodologik muammolar mavjud. Ushbu muammolarni ilmiy jihatdan hal etish dolzarb vazifa bo'lib, tadqiqot mavzusining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

KAPITAL QO'YILMALARGA DOIR INVESTITSİYALAR HISOBI METODOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR

Kapital qo'yilmalar deganda sotuvga mo'ljallanmagan uzoq muddatli aktivlarni sotib olishga hamda shakllantirish va hajmini ko'paytirishga ketgan xarajatlar tushuniladi. Ular binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va nomoddiy aktivlarni xarid qilish, yangi qurilish, rekonstruktsiya va modernizatsiya ishlari, er uchastkalarini sotib olish, shuningdek, lizing asosida asosiy vositalar shakllantirish orqali vujudga keladi.

Amaldagi 21-son BHMS "Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"da kapital qo'yilmalar uchun mo'ljallangan 0800-schet guruhining nomlari ularning maqsadlarini to'liq ochib bera olmaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 0800-"Kapital qo'yilmalar" schetini quyidagi kengaytirilgan variantda nomlash maqsadga muvofiq:

- 0810 – "Asosiy vositalarni pudrat usulida qurish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0811 – "Asosiy vositalarni xo'jalik usulida qurish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0812 – "Asosiy vositalar qiymatini ko'paytirish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0813 – "O'rnatiladigan jihozlarni xarid qilish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0820 – "Asosiy vositalarni xarid qilib olish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0840 – "Erni obodonlashtirish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0850 – "Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0860 – "Nomoddiy aktivlarni sotib olish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0861 – "Nomoddiy aktivlarni shakllantirish uchun sarflangan kapital qo'yilmalar";
- 0890 – "Boshqa kapital qo'yilmalar".

Bunday tafsillashtirish kapital qo'yilmalar tarkibidagi uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risidagi axborotlarning to'laligini ta'minlaydi va ob'ektlar ekspluatatsiyaga topshirilganda soliqqa tortish masalalariga aniqlik kiritish imkoniyatini yaratadi.


Qurilish usullariga qarab hisobni alohida olib borish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Pudrat usulida bajarilgan qurilish ishlari va uskuna montaji bo'yicha xarajatlar buyurtmachi tashkilot tomonidan 0810-schetda pudrat korxonaga bilan tuzilgan shartnoma narxiga muvofiq aks ettirilsa, xo'jalik usulida bajarilganda esa 0811-schetda haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymatida — moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, qurilish mashinalari va mexanizmlarini ushlab turish xarajatlari hamda ustama xarajatlar tarkibida — hisobga olinadi.

2021–2025 yillar ma'lumotlari asosida tahlil qilinganki, asosiy vositalarga investitsiyalar 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 180 baravarga ortgan. O'sish sur'atlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari va tijorat banklari kreditlari hamda boshqa qarz mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, ularning hajmi mos ravishda 800 va 120 baravarga ko'paygan. Shu bois kapital qo'yilmalar hisobi metodologiyasiga nisbatan zamonaviy talablar kuchaymoqda.

UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarida mavjud bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida ularni turli moliyaviy bozordagi qimmatli qog'ozlarga investitsiya qiladi. Moliyaviy investitsiyalar odatda qarzli qimmatli qog'ozlar (korporativ obligatsiyalar, konvertlanadigan qarzlar, tijorat qog'ozlari) hamda ulushli qimmatli qog'ozlar (aksiyalar) sotib olish orqali amalga oshiriladi.





Qarzli qimmatli qog'ozlar uchun hisobga olishning uch toifasi farqlanadi: (1) qarz uzilguncha ushlab turiladigan qimmatli qog'ozlar — amortizatsiyalanadigan qiymatda hisobga olinadi; (2) savdoga oid qimmatli qog'ozlar — haqqoniy qiymatda hisobga olinib, sof daromad sifatida tan olinadi; (3) sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar — haqqoniy qiymatda baholanib, aksionerlik kapitalining alohida tarkibiy qismi sifatida tan olinadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 12-son BHMS "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"ning 12-bandini quyidagi tahrir bilan to'ldirish maqsadga muvofiq: "Investitsiyalarning xarid qiymati bilan qarzga berilgan qimmatli qog'ozlarning to'lash qiymati o'rtasidagi tafovut (diskont yoki xarid qilish chog'ida mukofot tarzida berilgan mablag') investor tomonidan investitsiyalar bo'yicha doimiy daromad yoki xarajat bo'lishi uchun xarid qilingan paytdan boshlab qarz to'langan paytgacha bir tekisda yoxud samarali foiz usulini qo'llab hisobdan o'chiriladi". Chunki samarali foiz usuli qarz qimmatli qog'ozining muomalada bo'lgan dastlabki davrida chegirma amortizatsiyasi bo'yicha daromad miqdorini to'g'riroq aks ettiradi va shu yo'l bilan korxonaga foydasi bazasini ob'ektiv ko'rsatishga imkon beradi.

Ulushli qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobga olish usuli egalik ulushiga qarab belgilanadi: 20 foizgacha egallikda — haqiqiy qiymat usuli, daromad e'lon qilingan dividendlar miqdorida tan olinadi; 20–50 foizli egallikda — ulushli qatnashish usuli, investitsiya qilingan korxonaning taqsimlanadigan foydasidan ulush miqdori daromad deb tan olinadi; 50 foizdan ortiq egallikda — konsolidatsiya usuli qo'llaniladi.

"Kvarts" AJ misolida ko'rsatilishicha, moliyaviy aktivlar tarkibidagi qimmatli qog'ozlarni (040-satr), shu'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalarni (050-satr), tobe xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalarni (060-satr), xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonaga investitsiyalarni (070-satr) va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarni (080-satr) alohida-alohida moddalar sifatida emas, balki umumiy bitta "Moliyaviy aktivlar" moddasida (030-satr) aks ettirish va tafsilotlarni buxgalteriya balansiga ilova tariqasida taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

UZOQ MUDDATLI DEBITORLIK QARZLARI VA KECHIKTIRILGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Uzoq muddatli debitorlik qarzlari buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlari tarkibida aks ettiriladi. Ular asosan soliq hisobidagi foyda bilan moliyaviy hisob foydasi o'rtasidagi farq evaziga vujudga kelayotgan qarzlar hamda mulkni ijaraga va lizingga berish natijasida vujudga keladigan qarzlarni o'z ichiga oladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra tovarlar oldi-sotdisi bilan bog'liq debitorlik qarzlar qisqa muddatli hisoblanadi: 90 kunda to'langan qarzlar muddatiga o'tmagan, 90 kundan ortiq muddatda to'lanmagan qarzlar muddati o'tgan debitorlik qarzlar hisoblanadi. Biroq korxonalar faoliyatida bunday qarzlar bir yil muddatdan ortiq vaqtda ham mavjud bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu xarakterdagi qarzlarni kelgusida foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar sifatida qayta rasmiylashtirish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy hisob bilan soliq hisobi o'rtasidagi vaqtinchalik farqlar alohida e'tiborga loyiq metodologik masaladir. "Quva tekstil" MChJ korxonasi materiallari asosida o'tkazilgan tahlil ko'rsatishicha, asosiy vositaga tezlashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash natijasida yillar

bo'yicha vaqtinchalik farqlar vujudga keladi va bu farqlar 0950-"Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i" schetida alohida aks ettirilishi lozim. Amortizbaziylash muddati so'ngida ushbu schetda hech qanday qoldiq qolmasligi ta'minlanishi zarur.

Foyda solig'i stavkasining o'zgarishi bo'yicha amalga oshiriladigan tuzatuvchi yozuvni hisobot davrining sof foydasi yoki zarariga emas, balki 8710-"Taqsimlanmagan foyda" schetiga olib borish maqsadga muvofiq. Chunki: birinchidan, bunday yozuv 1 yanvarda amalga oshiriladi va moliyaviy hisobotlar hali tayyorlanmagan bo'ladi; ikkinchidan, bu tuzatuvchi yozuv asosiy (jiddiy) xato natijasi emas; uchinchidan, ikki marta soliqqa tortilish xavfi mavjud bo'ladi.

Yana bir muhim masala — oldinda to'langan soliq summalarid va lizingga berilgan asosiy vositalar bo'yicha olinishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarini "kechiktirilgan qarzarlar" deb atash masalasidir. Chunki oldinda to'langan soliq va olinadigan lizing to'lovlarining kelgusida to'liq qoplanishida muayyan risk mavjud bo'lganligi uchun ularni aktiv deb tan olish va ulardan kelgusida iqtisodiy naf ko'rish anchagina shubha ostida bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ularni kechiktirilgan qarzarlar deb tan olinishi ularning mohiyatiga mos keladi.

"Olingan veksellarning uzoq muddatli qismi", "xodimlarning uzoq muddatli qarzi" va "boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzi" sifatida aks ettirilayotgan summalarni buxgalteriya balansining joriy aktivlar qismida "muddati uzaytirilgan debitor qarzarlar" deb ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bunda ushbu debitorlik qarzlari bo'yicha muayyan foiz va'da qilingan va uni olish kafolati mavjud bo'lgan holda ularni qarzlarga bo'lgan huquq sifatida nomoddiy aktivlar tarkibida aks ettirish lozim bo'ladi.

MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLI VA HISOBVARAK REJASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra amaldagi buxgalteriya hisobi standartlariga bir qator tuzatishlar kiritish zarur.

Birinchi yo'nalish — 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning 11-bandiga: "Uzoq muddatli aktivlar — bu korxonadan tomonidan uzoq muddat mobaynida (12 oydan ko'p) foydalanish uchun ulush, hadya ko'rinishida hamda xarid qilib olinadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag'lardir", degan ta'rif bilan to'ldirish.

Ikkinchi yo'nalish — Moliyaviy hisobotning 3-shakli "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot"ni bekor qilib, uning o'rniga "Uzoq muddatli aktivlar holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma" ilovasini kiritish. Bu barcha uzoq muddatli aktivlar — asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar va boshqalar — to'g'risidagi axborotni yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotda faqat asosiy vositalar harakatiga doir alohida shakl mavjud bo'lib, boshqa uzoq muddatli aktivlar (nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar) uchun bunday shakl ko'zda tutilmagan.

Uchinchi yo'nalish — buxgalteriya balansidagi moliyaviy aktivlar moddalarini birlashtirish. Qimmatli qog'ozlar (040-satr), shu'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (050-



satr), tobe jamiyatlarga investitsiyalar (060-satr), xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonaga investitsiyalar (070-satr) va boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (080-satr) moddalarini umumiy bitta "Moliyaviy aktivlar" (030-satr) moddasida aks ettirish va tafsilotlarni alohida ilovada keltirishni tavsiya etamiz.

To'rtinchi yo'nalish — 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 4-bandida asosiy vositalar tarkibiga kiritish mezonlarini qiymati bo'yicha emas, balki foydali xizmat muddati va keltiradigan iqtisodiy naf asosida belgilash; shuningdek kapital xarajatlarni kapitallashtirishning aniq mezon va cheklovlarini kiritish.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi metodologiyasidagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan hal etish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotning aniqligini ta'minlash, investitsion qarorlar qabul qilishning ob'ektivligini oshirish va aktivlardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi.

Ushbu tezis doirasida amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Kapital qo'yilmalar hisobini yuritishga mo'ljallangan schetlarning nomlanishi kengaytirilgan variantda, qurilish usullari va faoliyat yo'nalishlariga ko'ra alohida-alohida belgilanishi lozim. Ayniqsa, 0812-schetni kiritish — asosiy vositalar qiymatini ko'paytirish xarajatlarini qurilish ob'ektlari xarajatlaridan ajratgan holda hisobga olish imkonini beradi.

2. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qarz qimmatli qog'ozlari toifalariga qarab amortizatsiyalangan qiymat yoki sof bozor qiymatida baholash zarur; savdoga mo'ljallangan qarz qimmatli qog'ozlarini investitsiya tur(guruh)lari bo'yicha baholash usulini 12-son BHMS ga qo'shimcha sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

3. Vaqtinchalik farqlar natijasida vujudga keladigan kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha debitorlik qarzini alohida schetda (0950) aks ettirish va foyda solig'i stavkasi o'zgarganda tuzatuvchi buxgalteriya yozuvini 8710-"Taqsimlanmagan foyda" scheti orqali amalga oshirish metodologik to'g'ri yechim hisoblanadi.

4. Moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish doirasida "Uzoq muddatli aktivlar holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma" ilovasini kiritish barcha uzoq muddatli aktivlar to'g'risidagi yaxlit axborotni foydalanuvchilarga yetkazish imkonini beradi.


Ishlab chiqilgan takliflar milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) talablari bilan yanada muvofiqlashtirish va korxonalar moliyaviy holatini to'g'ri baholash uchun zarur asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2016.

2. 5-son BHMS "Asosiy vositalar". — Toshkent: Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, 2004.



- 
3. 12-son BHMS "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish". — Toshkent, 2004.
 4. 21-son BHMS "Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". — Toshkent, 2004.
 5. Abdullayev A. va bosh. Moliyaviy hisob. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 288 b.
 6. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. — Toshkent: Fan, 2005. — 201 b.
 7. Gadoyev E.F. va bosh. Uchet i nalogooblozheniye osnovnyx sredstv i nematerial'nyx aktivov. — Tashkent: Mir ekonomiki i prava, 2004. — 208 s.
 8. Nidlz B., Anderson X., Koldwell D. Printsipy buxgalterskogo uchyota. — M.: Finansy i statistika, 1993.
 9. Mezhdunarodnye standarty finansovoy otchyotnosti (MSFO). — M.: Askeri-ASSA, 1998.
 10. Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti. — Minsk: Novoye znanie, 1999. — 131 s.
 11. Blank I.A. Upravleniye ispol'zovaniyem kapitala. — Kiev: «Nika-Tsentr», 2000. — 153 s.
 12. Kovalev V.V. Finansovyy analiz. — M.: Finansy i statistika, 2001. — 127 s.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

